XALQ DEPUTATLARI UCHQUDUQ TUMANI KENGASHINING
Q A R O R I

2026-yil 9-yanvar VII-19-1-5-76-K/26 Uchquduq tumani

Uchquduq tuman bo‘yicha 2026-yil uchun yuridik va jismoniy shaxslarning MFY va OFYlar kesimida ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarini qo‘llagan holda yer solig‘i, yer qa’ridan va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalarini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 429-,437-,445-,452-moddalari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrdagi “Resurs soliqlari va mol-mulk solig‘ini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-6121-sonli Farmoni, hamda Xalq deputatlari Navoiy viloyat Kengashining “Navoiy viloyati bo‘yicha 2026-yil 9-yanvardagi “Navoiy viloyati bo‘yicha 2026-yilda yuridik va jismoniy shaxslar uchun ayrim soliqlarni hisoblab chiqarish maqsadida qo‘llaniladigan koeffitsentlar, mutlaq miqdor summalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VII-23-1-5-0-K/26-sonli Qaroriga asosan Uchquduq tuman soliq inspeksiyasining 2025-yil 9-dekabrdagi 27-06349-sonli xati hamda Uchquduq tuman bo‘yicha 2026-yilda yuridik va jismoniy shaxslar uchun ayrim soliqlarni hisoblab chiqarish maqsadida qo‘llaniladigan koeffitsientlar, mutlaq miqdor summalarini tasdiqlash maqsadida “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6-va 24-moddalariga muvofiq, Xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrdagi “Resurs soliqlari va mol-mulk solig‘ini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” gi PF-6121-son Farmoni shuningdek, Xalq deputatlari Navoiy viloyat Kengashining “Navoiy viloyati bo‘yicha 2026-yil 9-yanvardagi “Navoiy viloyati bo‘yicha 2026-

yilda yuridik va jismoniy shaxslar uchun ayrim soliqlarni hisoblab chiqarish maqsadida qo‘llaniladigan koeffitsentlar, mutlaq miqdor summalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VII-23-1-5-0-K/26-sonli Qaroriga muvofiq, tuman soliq inspeksiyasining 2026-yil uchun soliq stavkalariga kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarini qo‘llagan holda “Tumanda 2026-yil uchun qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasi, jismoniy shaxslar bazaviy soliq stavkalari, suv resurslaridan foydalanganlik solig‘i stavkasi, yer qa’ridan foydalanilganlik uchun soliq stavkalari” bo‘yicha takliflari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning stavkalarini qonunchilikda belgilangan miqdorlar doirasida:

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasi hamda Jismoniy shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalari bo‘yicha soliq stavkasi mahallalar kesimida 1-ilovaga;

Suv resurslaridan foydalanganlik solig‘i stavkasi 2-ilovaga;

Yer qa’ridan foydanilganlik uchun soliq stavkasi 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. “UCHQUDUQ” gazetasi (F.Yandashova), tuman hokimligi axborot xizmati rahbari-matbuot kotibi (R.Qodirova)ga:

Uchquduq tuman bo‘yicha yuridik va jismoniy shaxslar uchun ayrim soliqlarni hisoblab chiqarish maqsadida qo‘llaniladigan koeffitsientlar, mutlaq miqdor summalari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni “Uchquduq” gazetasida hamda tuman hokimligining rasmiy veb saytida e’lon qilish tavsiya etilsin.

4. Xalq deputatlari shahar Kengashining 2025-yil 4-yanvardagi VII-4-1-5-76-K/25-sonli qarori 2026-yil 1-yanvardan o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

5. Uchquduq tuman soliq inspeksiyasi (A.Usmonov)ga:

Soliq stavkalarini barcha soliq to‘lovchilarga soliq to‘lovchilarning shaxsiy kabineti orqali yetkazilishini ta’minlash;

2026-yilning 20-dekabriga qadar keyingi soliq davri uchun soliq stavkalarini belgilangan tartibda xalq deputatlari tuman Kengashiga kiritish vazifalari yuklatilsin.

6. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (S.Hamrayev) va xalq deputatlari tuman Kengashining barcha doimiy komissiyalari zimmalariga yuklansin.

7. Ushbu qaror 2026-yil 1-yanvardan e’tiboran kuchga kiradi.

Sessiya raisi **KAMOLOVA MUBINA BAXSHILLOYEVNA**

Xalq deputatlari Uchquduq tumani
Kengashining
2026-yil 9-yanvardagi
VII-19-1-5-76-K/26 -son qaroriga
1-ilova

Uchquduq tumandagi qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha yer solig‘i stavkalari uchun 2026-yilda belgilangan koeffitsientlar

T/r	Mahalla fuqaro yig‘inlari nomi	Jismoniy shaxslar bo‘yicha, 1 kv.m uchun		Yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig‘i stavkalari, 1 ga uchun	
		Koeffitsient	Yer solig‘i stavkasi 2026-yil uchun (so‘mda)	Koeffitsient	Yer solig‘i stavkasi 2026-yil uchun (so‘mda)
1	“Navoiy” MFY	1,60	603,20	1,60	74 624 000,0
2	“Aytim” MFY	1,60	603,20	1,60	74 624 000,0
3	“Abay” MFY	1,40	527,80	1,60	74 624 000,0
4	“Uzunquduq” OFY	1,1	414,70	1,20	55 968 000,0
5	“Altintau” OFY	1,1	414,70	1,20	55 968 000,0
6	“Bozdun” OFY	1,25	471,25	1,20	55 968 000,0
7	“Do‘stlik” MFY	1,60	603,20	1,60	74 624 000,0
8	“Yo‘lchilar” OFY	1,40	527,80	1,60	74 624 000,0
9	“Kokpatas” MFY	1,30	490,10	1,20	55 968 000,0
10	“Kukayaz” OFY	1,1	414,70	1,20	55 968 000,0
11	“Mingbuloq” OFY	1,1	414,70	1,20	55 968 000,0
12	“Mustaqillik” MFY	1,60	603,20	1,60	74 624 000,0
13	“Iftixor” MFY	1,40	527,80	1,60	74 624 000,0
14	“Shalxar” OFY	1,2	452,4	1,20	55 968 000,0

Xalq deputatlari Uchquduq tumani
Kengashining
2026-yil 9-yanvardagi
VII-19-1-5-76-K/26 -son qaroriga
2-ilova

2026-yil uchun suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo‘yicha Soliq kodeksi bilan o‘rnatiladigan soliq stavkalariga nisbatan qo‘llaniladigan koeffitsientlar miqdori

T/R	**Hudud nomi**	**Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar, shuningdek YaTTlar**	**Sanoat korxonalari**	**Avtotransport vositalarini yuvish**	**Alkogolsiz va alkogolli ichimliklar ishlab chiqarish, (pivo va vinodan tashqari)**
1	Uchquduq t	1,10	1,10	1,10	1,10

Xalq deputatlari Uchquduq tumani
Kengashining
2026-yil 9-yanvardagi
VII-19-1-5-76-K/26 -son qaroriga
3-ilova

2026-yil uchun yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq bo‘yicha Soliq kodeksi bilan o‘rnatiladigan soliq stavkalariga nisbatan qo‘llaniladigan koeffitsientlar miqdori

№	Tuman va shaharlar nomi	2026-yil uchun qo‘llanilgan koeffitsiyentlar (so‘mda)													
		Arralanadigan, xarsangtosh, ohaktosh-chig‘anoq, ohaktosh (sement va ohak ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan ohaktoshdan tashqari), dolomitlar, qurilishda ishlatiladigan mayda toshlar, bazalt, granodioritlar, granosiyenitlar, siyenitlar, porfiritlar, diabaz-porfiritlar, gabbro, slanesjinslari, karbonat xom ashyosi, travertin so‘m/m.kub		Tabiiy bezaktoshdan bloklar so‘m/m.kub		Marmar so‘m/m.kub		Granitlar so‘m/m.kub		Gips toshi, gips va angidrid, ganch so‘m/tonna		G‘isht-cherepitsa xom ashyosi, lyosslar va lyossimon jinslar so‘m/m.kub		Qum-shag‘al aralashmasi qurilish qumi, qumtoshlar so‘m/m.kub	
		Koeffitsient	*Soliq stavkasi*	*Koef-fitsient*	*Soliq stavkasi*	*Koef-fitsient*	*Soliq stavkasi*	*Koef-fitsient*	*Soliq stavkasi*	*Koef-fitsient*	*Soliq stavkasi*	*Koef-fitsient*	*Soliq stavkasi*	*Koef-fitsient*	*Soliq stavkasi*
1	**Uchquduq t**	1,10	7 250,1	1,12	11 984,0	1,10	23 540,0	1,12	35 952,0	1,1	18 772,6	1,15	5 684,5	1,20	6 420,0